

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA PARONIMLARNI O'RGATISHNING  
SAMARALI VA O'ZIGA XOS USULLARI**

**Fayziyeva Shamsiya Bekmirzo qizi,**

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi, e-pochta: [fayziyevashamsiya1444@gmail.com](mailto:fayziyevashamsiya1444@gmail.com)

**Annotatsiya:** Paronimlardan stilistik priyom sifatida foydalanish o'quvchi va o'qituvchilarni, nashriyot xodimlari va jurnalistlarni, umuman, keng kitobxon ommasini tilga va nutq madaniyatiga alohida e'tibor bilan qarash lozimligiga da'vat etadi. Paronimlar o'rganilmagan soha Paronimlar lug'ati bo'lgani uchun ham, ular o'zbek tilida nashr etilgan ba'zi lingvistik adabiyotlarda qorishtirib yuborilgan.

**Kalit so'zlar:** Paronim, obektiv, subektiv, orfografiya, orfoepiya,


**Abstract:** The use of paronyms as a stylistic concept encourages students and teachers, publishing workers and journalists, and the general public to pay special attention to language and speech culture. Because paronyms are an unstudied field, they are confused in some linguistic literature published in Uzbek.

**Key words:** *paronym, objective, subjective, orthography, orthoepy,*

Kundalik hayotda agar insonning nutqiy faoliyatidan o'ndan to'qqiz foizi og'zaki tarzda va faqat bir foizginasi yozma tarzda amalga oshirilishi bundan tashqari televediniya ko'rsatuvlari va radio eshittirishlarda, yig'inlarda ziyolilar nutqida orfoepiya meyorlariga rioya etilmay bu me'yorlar buzilish holatlari uchrab turishini xisobga olsak umumiy o'rta ta'limda so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga katta e'tibor berilishi asoslidir.

Shuni ham e'tibor olish lozimki, og'zaki mashqlar va topshiriqlarni bajarish yozma mashqlardan ko'ra ancha kam vaqtni talab qiladi, qisqa muddat ichida dars jarayonida o'quvchi uchun bir necha turdagi og'zaki topshiriqlarni bajara olish imkoniyati. Bu topshiriqlarning ko'pi ijodiy va mustaqil bajarishga mo'ljallangani o'quvchini ijodkorlikka undaydi. Bu esa o'z navbatida, dars samaradorligini oshiradi.

Ammo shuni ham hisobga olish kerakki, o'qituvchi darsda faqat darslikdan berilgan ma'lumotlar bilan cheklanmasligi kerak. Darslik o'quvchi bilishi va ustida ishlashi uchun lozim bo'lgan o'quv qo'llanmalarining faqat bir qisminigina beradi, xolos. Dars jarayonida o'quvchi darslikdan berilgan namunaviy mashq asosida shunga o'xshash misollarni izlab topishi saralashi, qiyoslashi, umumlashtirilishi va nihoyat



amalda qo'llashi lozim. Shuni hisobga olib 4-sinf "Ona tili" darsligidagi "Bir tovush bilan farq qilinadigan so'zlar ma'nosi va imlosi" mavzusi asosida bajariladigan mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Ma'lumki paronimlar obektiv ham subektiv hodisa hisoblanadi. Chunki shaklan o'zaro, yaqin so'zlar tilda obektiv ravishda mavjud. Ayni paytda ba'zi kishilar paronimlar so'zlarni birining o'rnida ikkinchisini almashtirib qo'llaydilar. Bu ularning savodxonligi tilni bilish madaniyati pastligi, turli soxalardan bexabarligidan dalolat beradi. Paronimlar ham ijobiy, ham salbiy xodisa sifatida baholash mumkin. Ijobiyliги shundaki bu so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini tashkil etadi va turli uslubiy maqsadlarda qo'llanadi, salbiyлиги esa ularning so'z tanlash bilan bog'liq xilma – xil nuqsonlarni yuzaga keltirishi bilan belgilanadi. Bu hol paronimlarning tovushdosh, talaffuzdosh so'zlar bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi.

Paronimlar faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlardir.

Masalan: *Afzal- apzal, fol-pol, bob-bop, tub-tup. Abzal-ot-ulovni egarlash, aravaga qo'shish uchun zarur asboblarning jami. Afzal –yaxshi, a'lo, ortiq so'zlarining ma'nodoshligi. Daho- kuchli zehn va iste'dod. Daha- shaxar tarkibidagi ma'muriy birlik. Amr-farmon, buyruq. Amir – o'tmishdagi davlat rahbari.*

Paronimlar orfografiya (to'g'ri yozishi) va orfoepiya (to'g'ri talaffuz qilish) bilan bog'liq xatolar yuzaga keladi.

Masalan: *Ziyoda yodsirab ularga qaradi.* Bu yerda yodsirab emas, yotsirab bo'lishi kerak edi.

Paronimlar anglatgan ma'nolar hamma vaqt ham aniq farqlanmaydi. Bunda ularning grammatik jihatdan ma'lum umumiylikka egalari yoki qo'llanish o'rnini, ishlatilish sohasi hamda sintaktik vazifalardagi mushtarakligi sababdir. So'zlarning paronim bo'lishi uchun ularning talaffuz jihatidagina yaqin bo'lishi kamlik qiladi. Omonimlar shaklan to'la tenglikni yuzaga keltirsa ham nutqda paronimlar singari biri ikkinchisi bilan deyarli qorishtirilmaydi.

So'zlarning ma'nosini tushuntirish ular bilan jumlar tuzish bo'g'in bilan so'zning o'zak va qushimchalarining farqini tushunish imkoniyasini beradi. Paronimlar ya'ni tovushdosh so'zlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy nuqsonlar asosan uch holatda yuzaga keladi.

- 1) paronim so'zlarning har ikkisi notanish yoki ma'nosi noanik bo'lganda;
- 2) bittasi notanish yo kam tushunarli bo'lganda;
- 3) bir o'zakli, ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganda .

*Buni maktab o'quvchilarining yozma ishlarida ko'p uchraydigan quyidagi xatolarda kurishimiz mumkin:*

*Shokir otaning qariyib butun umri og'ir mehnat qilish bilan o'tgan.*

*Mirzakarimboy og'ir mehnatdan qo'llari qadah bo'lgan minglab kishilar hisobiga boyluk orttirgan.*

*O'qigan har bir she'rim qalbimdagi orzu-havaslarim bilan tuyg'unlashayotgandek edi.*

Ushbu gaplarda qariyib, uyg'unlashmoq, qadoq so'zlari noto'g'ri ishlatilgan. Umuman paronimlarni qo'llashdagi chalkashlik nutq mazmunining buzilishiga o'quvchilarning fikrni noto'g'ri tushunishiga olib keluvchi, so'z tanlash bilan bog'liq uslubiy nuqson hamdir.

Yana ravon egatlarda shtab (shitob) bilan olg'a borardi. Tovushdosh so'zlar esa shaklan teng bo'lmasa ham, so'z tanlash bilan bog'liq uslubiy nuqsonlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun paronimlarni belgilashda so'zlarning tovush jihatdan ma'lum bir umumiy xususiyatlarga ega bo'lishini ham nazarda tutish zarur.

Demak paronimlarga talaffuzi yaqin bo'lgan (ammo teng emas, ma'nosi aniq farqlanadigan so'zlar deb ta'rif berilar ekan, ularning grammatik tabiati yoki qo'llanish doirasi ishlatilish sohasi va sintaktik vazifasi jihatdan ma'lum darajada o'xshashligini qoyil etish zarur. Xuddi mana shu xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlarning ma'nosini yaxshi bilmaslik ularni bir-biri bilan qorishtirishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari tovush tarkibi jihatdan yaqin bo'lgan boshqa tur so'zlarni, xato yozish odatda ularning ma'nosini bilmaslik, bir-biridan farqlay olmaslik tufayligina emas balki ko'proq orfografik qoidalarni, orfoepik normalarni bilmaslik asosida ro'y beradi, lekin paronimlarni qo'llash bilan bog'liq nuqsonlarning yuzaga kelishini faqat orfografiya bilan bog'lab bo'lmaydi.

Chunonchi, transport, mucha, zamin so'zlari o'rnida tranport, muchal, zamir so'zlarini qo'llash asosan ularning ma'nosini bilmaslik natijasidir.

Paronimlar so'z tanlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchi va talabalarning o'xshash so'zlarni o'zlashtirishini qiyinlashtiradi. Masalan, o'quvchilarning ko'pchiligi qo'yidagi so'zlarni yozishda, tushunishda qiynaladilar:

*kontinent – kontingent,*


*reklama – reglament,*

*dialektal – dialektik,*

*ftor- xlor,*

*kaliy – kalsiy,*

*kofe- kafe,*



*tahrir – tahlil;*

*Zaminda ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan abadiy (adabiy) kecha bo‘lib o‘tdi. Aravakash haligi a‘zoyi (avzoyi) buzuq kishilarning yovuz niyatlarini sezib qoldi.*

Maktab o‘quvchilari yozma ishlarda yo‘l qo‘yayotgan bu xatolarni bartaraf etish uchun qo‘yidagi kabi ishlarni amalga oshirish lozim.

A) avval o‘quvchilarga notanish so‘zning ma‘nosini tushuntirish, bu so‘zning izohini lug‘atdan topish, uning aytilishi va yozilishiga ahamiyat berib daftarga ko‘chirish,

B) ayrim so‘zlarga, atamalarga etimologik izohlar berish lozim,

V) o‘xshash so‘zlar yordamida gap tuzdirish yoki paronimlar berilgan gaplarni tahrir qilish kabi mashqlarni bajarish;

G) o‘quvchilar bilan tovushdosh so‘zlardan iborat bo‘lgan jummalarni tez aytirish mashqlarini o‘tkazish.

D) leksik, ortografik yo‘nalishdagi yozma ishlar o‘tkazib turish.

Paronimlarga oid quyidagi xil topshiriqlarni 4-sinfдан boshlab tobora murakkablashtirilgan hollarda barcha sinflarda berish mumkin:

1. Quyidagi so‘z ma‘nolarini tushuntiring va gap tuzing: *ahd-jahd, azim-azm, idora-iroda, tahsil-tahsin, tansiq – tanqis, tahlit- taqlid, tahlil – tahrir.*

2. Quyidagi o‘zlashtirma so‘zlarning farqini tushuntiring: *aliment – element, diplomat –diplomat, adresat – adresant .*

3. Quyidagi so‘zlarning o‘zagini aniqlang va ma‘nolarini izohlab bering: *yonilg‘i-yoqilg‘i, kursatma – kurgazma, undosh-undash, o‘tkir-o‘tqaz, berkitmoq–birkitmoq.*

Mazkur amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida paronim so‘zlarning leksik ma‘nosi hamda ularning semantik xususiyatiga alohida e‘tibor berish bilan birga, so‘z shakllari va qushimchalar imlosiga, ularning yozuvdagi va talaffuzdagi farqlanishlariga o‘quvchilar e‘tiborini jalb qilish lozim.

Demak, paronimlarni semantik stilistik, fonetik, orfografik jihatdan o‘rganish natijasida o‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi ular imlo qoidalarini puxta egallab, so‘z ma‘nolarini farqlaydigan va so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llaydigan bo‘ladilar.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent. 2013.

2. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1998. 64b.

3. Umumta‘lim fanlari metodikasi. Ma‘naviy - ma‘rifiy, ilmiy, metodik nashr. 2013-yil sonlari

4. Shumulevich N.M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T., "O'qituvchi" 1989 y.
5. Vorobg'yov A.SH. "Konstruktorlik va modellashtirish" T., "O'qituvchi" 1989 yil.
6. Mavlonova.R.A. "Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari". T. 1996y.

